

## **YURISTNING KASB ETIKASI HAQIDA QISQACHA FIKRLAR**

Muhammedov Muhammadamin Murodjon o‘g‘li

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

1-bosqich 37-guruh o‘quvchisi

Telefon: +998990523567

muhammedov3567@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada axloq tushunchasi, kasb etikasi tushunchasi, kasb etikasining kategoriyalari, huquqshunoslar kasb etikalarining ayrim jihatlari xususida qisqacha ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** axloq, kasb etikasi, kasb etikasining kategoriyalari, yuristning kasb etikasi, xulq-atvor, odob, yurish-turish.

**Аннотация:** в данной статье даны краткие сведения о понятии этика, понятие профессиональной этики, категории профессиональной этики, некоторые аспекты профессиональной этики юристов.

**Ключевые понятия:** категории этики, профессиональной этики, профессиональной этики, профессиональной этики юриста, поведения, этикета, поведения.

**Abstract:** This article provides brief information about the concept of ethics, the concept of professional ethics, categories of professional ethics, some aspects of professional ethics of lawyers.

**Key concepts:** ethics, professional ethics, categories of professional ethics, professional ethics of a lawyer, behavior, etiquette, conduct.

Jamiyatning axloqiy hayoti kishilarning ijtimoiy, siyosiy va xuquqiy faoliyatida, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan o‘ziga xos munosabatlari shakli sifatida har davr davrning dolzarb masalasi hisoblandi.

Kuzatayotganimizdek, keyingi vaqtarda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida mazkur masalaga bo‘lgan e’tiborning yanada kuchayishi zamirida, bu sohani huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Avvalo, “Axloq” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya degan ma’nolarni anglatadi. Bugungi kunda ushbu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlarni qamrab oladi.

Axloq haqida aytilgan tushunchalarni turli manbalardan bilib olishimiz mumkin, ya’ni axloq - inson va jamiyat o‘rtasidagi obyektiv aloqadorlik tufayli kelib

chiqadigan, shaxsiy va umumiylar manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayan xulqatvor, odob, xatti-harakat normalarning majmuidir.<sup>1</sup> Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi.<sup>2</sup> Axloq to'g'risidagi tushunchalar borasida professor G.Nosirxo'jayeva: "Axloq tushunchasini ikki xil ma'noda ko'rish mumkin: axloq umumiylar tushuncha sifatida etikaning tadqiqot obyektini anglatsa, yakka tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining o'ziga xos ko'rinishini anglatadi." -deya e'tirof etadi.<sup>3</sup>

A.Sherning "Axloqshunoslik" nomli kitobida "Axloq — jamiyat, zamon, ba'zan insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiylar xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa" sifatida baholandi.<sup>4</sup> Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan.

Yillar o'tishi bilan ishlab chiqarish, ilm-fan hamda texnika taraqqiy etib, ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashadi. Bu jarayonlarning muttasil davom etib borishi esa har biri muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradigan turli xil yangi faoliyat sohalari yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday soha egalari esa shunga mutanosib tarzda muayyan ijtimoiy burchlarni bajara boshlaganlar.

Tabiiyki bunday burch va majburiyatlar muayyan axloqiy qoidalar va xulqatvor me'yorlarida o'z ifodasini topib boradi. Shu sabab, kasb axloqining paydo bo'lish uzluksiz mehnat taqsimotining mahsuli bo'lib, uning axloqiy dasturi, axloqiy bahosi sifatida faoliyat ko'rsata boshladи. Zero, jamiyatning har bir kasb-hunarga, sohaga beradigan ahloqiy bahosi ikki asosiy omil bilan: birinchidan, mazkur kasb-hunar vakillarining jamiyat ravnaqi uchun nimalar bera olishi bilan; ikkinchidan - jamiyatning ma'naviy ta'sir ko'rsatish ma'nosida ularga nimalar bera olishi bilan belgilanadi.

Ushbu axloqiy baho omillariga muvoviq kasb axloqini ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin, jumladan:

- huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab – yurist etikasi;

<sup>1</sup> <https://znanio.ru/media/kasb-ahlo-i-va-uning-umumij-ahlo-tizimida-tutgan-rni-2521050>.

<sup>2</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Axloq>.

<sup>3</sup> G. Nosirxo'jayeva. Etika fanidan ma'ruza matni. - T.: 2011-yil. 3-bet.

<sup>4</sup> Sher, Abdulla. Axloqshunoslik: Oliy ta'lif muassasalarining bakalavriat ta'lif yo'nalishlari uchun darslik/ Abdulla Sher; mas'ul muharrir B.E. Husanov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2010. 8-bet.



- o‘qituvchilik ixtisosiga qarab – pedagog etikasi;
- tibbiyot ixtisosiga qarab – shifokor etikasi;
- xizmat ko‘rsatish ixtisosliga qarab – xizmat ko‘rsatish etikasi va hakazo.<sup>5</sup>

Kasb etikasi - jamiyat tomonidan qabul qilingan ahloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha’n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasbidagi o‘ziga xos ko‘rinishidir.

Demak, kasbga oid etika har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o‘rganadi va hayotga tatbiq etadi. Bizni bevosita qiziqtirgan mavzu yuristning kasb etikasi haqidagi masalalar bo‘lib, mazkur tushuncha ahloq, me’yoriy-qadriyatlar etikasi iboralari bilan bevosita bog‘liq.

Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari kasb etikasi bir qancha sohalarga bo‘linib o‘rganiladi, chunonchi: sud idoralari xodimlari etikasi; Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari etikasi; adliya organlari, prokuratura va ichki ishlar idoralari xodimlari etikasi; yuridik xizmati xodimlari etikasi; advokatlar kasb etikasi va hakozo.

Kasb etikasining kategoriyalari deganda jamiyat axloqiy hayotidagi umumiy muhim tomonlarni, xususiyatlar va munosabatlarni inson tomonidan o‘zlashtirish usullarini tushunmoq lozim bo‘ladi. Yuristning kasb etikasi mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan mutaxassis B.Ismailov yuristning kasb etikasi kategoriyalari boshqa fanlarning kategoriyalaridan o‘zining bir qator xususiyatlari bilan farq qilishi haqidagi fikrlarni bildirib, ularni quyidagicha ajratib ko‘rsatadi:

1. Etika kategoriyalari faqat axloqshunoslik sohasida emas, balki boshqa fan sohalarida ham qo‘llaniladi.
2. Etika kategoriyalari bir vaqtning o‘zida boshqa fanlar-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy fanlarning ham kategoriyalari hisoblanadi.
3. Etika kategoriyalari o‘zining keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Bu kategoriyalar inson hayotining barcha jabhalarini ya’ni tugilishdan hayotining so‘nggi kunlarigacha bo‘lgan mehnat, sevgi, kundalik axloq-odob, xulq, muomala - hammasini o‘zida aks ettiradi.
4. Etika kategoriyalari kishilar xatti harakatlari, xulq-atvorlarini jamiyat talablari nuqtai nazaridan ma’qullah yoki qoralash xususiyatlariga ega.<sup>6</sup>

<sup>5</sup> Исмаилов Б.И. Юристнинг касбий этикаси.-Т.: Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратура Академияси. 2019.-20-21-бетлар.

<sup>6</sup> Исмаилов Б.И. Юристнинг касбий этикаси.-Т.: Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратура Академияси. 2019.-20-21-бетлар.



Har bir soha vakili, ayniqsa huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari o‘z faoliyatlarida o‘zining sohasida kasb etikasi qoidalalariga og‘ishmay amal qilishi, yoshlarga, xalqqa yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi ekanliklarini amalda ko‘rsatishlari, yaxshilik,adolat, halollik, vijdonlilik, burch, or-nomus va qadr-qimmat kabi ijobiy kategoriyalariga sodiq bo‘lishlari talab etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. <https://znanio.ru/media/kasb-ahloj-va-uning-umumij-ahlo-tizimida-tutgan-rni-2521050>.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Axloq>.
4. G. Nosirxo‘jayeva. Etika fanidan ma’ruza matni. - T.: 2011-yil. 3-bet.
5. Sher, Abdulla. Axloqshunoslik: Oliy ta ’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik/ Abdulla Sher; mas’ul muharrir B.E. Husanov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. 8-bet.
6. Ismailov B.I. Yuristning kasbiy etikasi.-T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura Akademiyasi. 2019.-20-21-betlar.

